

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA‘MUN
AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI**

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2024-5/3
Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2024

Саидусманов Б.А. Ўзбекистонда транспорт коммуникация тизимининг халқ хўжалигида тутган ўрни	151
Сатимов Б.М. Оролбўйида ҳарбий истеҳкомларнинг келиб чиқиши тўғрисида айрим мулоҳазалар	154
Тошпўлатов Б. Андижон давлат тиббиёт институтида илмий тадқиқот ишларининг йўлга қўйилиш жараёнлари	157
Хидирова Н.Ў. Қозилик ҳужжатларини ўрганишда “Мажъмуъ ал-васойиқ” ва “Жунг” асарларнинг аҳамияти	159
Шарапов С.С. Административная деление и торговые отношение юго-восточных городов Бухарского Эмирата в конце XVIII - начале XX века	163
Шерниязов Р.Х. Ривожланган ўрта асрлардаги Марказий Осиё ва Волга – Уралбўйида кечган этносиёсий жараёнларнинг айрим жиҳатлари	166
Эгамбердиева Г.А. Хорезмская область как один из основных центров туризма в Узбекистане	174
Эшанова Г.Н. Абу Ҳомид Ғаззолийнинг диний маърифий қарашлари	177
Юлдашева Н.Н. Ўзбекистонда тарихий ўлкашунослик бўйича тадқиқотларни ривожлантиришда амалга оширилаётган ишлар	180
ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
Abdullayeva Sh.D. Ta'limda multimediya vositalarini qo'llanilishi	185
Abduraimova G.S. Adaptive learning systems: personalizing education for the digital age	188
Abdusamatov N. Arxitektura va qurilish sohasida o'quv jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida integratsiyalash	190
Alibekova M.A. Breaking the sound barrier in the evolutionary journey of speedy english pronunciation	193
Aripova N.A. Kredit - modul tizimida talabalarning mustaqil ishlarining tashkil etish muammolari	196
Azizova B.N., Islomova M.X. An innovative approach to teaching foreign languages through the flipped classroom method and its practical implementation with a focus on student motivation	199
Choriyev N.N. Talabalarga zardo'zlik buyumlarini ishlab chiqarishda ishlatiladigan texnologik mashinalarni o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari	202
Dusmetova S.M., Sobirova N.U. Developing students' vocabulary learning strategies through task based instructions	205
Ergashev D. Modern methods of teaching english language in the higher educational institutions	208
Eshmanova Sh.I. Benefits of authentic materials in teaching second foreign language	210
Eshmurodov A.N. Loyihalangan rejaga asosan maktablarda chizmachilik fanidan darslarni modellashtirish	213
Ibodullayeva G.J. ESP talabalari uchun o'qishni o'rgatish usullari	215
Ibodullayeva G.J. Yoshi kattalarga ingliz tilini o'qitishda o'yinlarning o'rni	218
Ibrokhimova M.U. Enhancing english language learning through integrating web online mapping services	222
Islamova M.Sh., Xursanov D.D. Mustaqil ta'limning oliy harbiy ta'lim jarayonidagi muammolar	224
Jabborov B.I., Ibodullayeva M. Biologiya darslari sifat va samaradorligini oshirishda sinkveyn texnologiyasini qo'llash	227
Jonibekova M.U. Benefits of using reflective teaching methods for ESL educators	229
Jurayeva Z.Q. Improving information technology education through e-books	232
Karayeva D.X. Educational technology. The impact of technology on quality of the lessons	235
Karimov M.A., Berdiyev U.T. Uchta tekislik va unda nuqtaning proyeksiyalarini qurishni noananaviy usul bilan tushuntirilishi	238
Karimova J.Sh. Advantages of comparative learning in teaching a foreign language	242
Khalmirzayev I.V. Essentials for teaching youth in a patriotic spirit	245
Khamidov A.A. Peculiarities of texts and video clips used in teaching simultaneous interpreting	247
Khujayev B.T. Navigating modern technologies: unveiling useful and harmful aspects in the present era	250
Kosimova S.S. Formation of speaking skills in teaching a foreign language	253
Kurbanova M.M. Talabalar o'rtasida ingliz tilida bilim va malaka darajasini oshirish standartlari	255
Mamirov O.B. Kompyuter lingvistikasini o'qitish tamoyillari	258
Mamirov O.B. Kompyuter lingvistikasini o'qitishning didaktik modeli	261
Maxkamova D.B., Nabijonova N.M. Teaching communcative language in the classroom: summary of an effective approach	264
Maxmudova N.B. Nutqiy kompetensiyani shakllantirish omillari	266
Mirzabekova F.N., Anvarjonova N.A. The effect of sports on the body	270
Mirzaeva Z.Sh. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida kreativ fikrlash mazmun- mohiyatini rivojlantirish mexanizmi	273
Mirzaeva M.J. Methods of teaching a foreign language	275
Muratova D.M. Methodology for the formation of communicative competence of students	278
Narmurodova D. Linguodidactics as a methodological basis for teaching foreign languages	281
Nasrullaev O. Identifying the specific features of terms in the field of alternative medicine in the uzbek and english languages	284

4. Солодов Ж.К., Кузнецов В.С. Теория и методика физического воспитания и спорта. М.: Академия, 2003.
5. Кузнецов А.К. Физическая культура в жизни общества. М.:1995 год.

UO'K 37.026.9

BO'LAJAK BIOLOGIYA O'QITUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASH MAZMUN-MOHİYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMI

Z.Sh.Mirzaeva, oq'ituvchi, Chirchiq Davlat Pedagogika Univesiteti, Chirchiq

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak pedagoglarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish yo'llari hamda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishda qanday metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lishi to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Kreativlik, kreativlik xususiyatlar, pedagogik kreativlik, interfaol usul, intellekt, mustaqil ishlar.

Аннотация. В статье рассматриваются пути развития творческих способностей будущих учителей и какие методы следует использовать в развитии творческих способностей.

Ключевые слова: Творчество, особенности творчества, педагогическое творчество, интерактивный метод, интеллект, самостоятельная работа.

Abstract. The article discusses ways to develop the creative ability of future teachers and what methods should be used in the development of creative ability.

Key words: Creativity, creativity features, pedagogical creativity, interactive method, intellect, independent works.

Zamonaviy dunyoning innovatsiyalariga moslashish, doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish oliy ta'lim muassasasi pedagogining muhim kasbiy vazifasi hisoblanadi. Kreativlik ta'lim jarayonini tashkillashtirishni o'zida mujassamlashtirib, kreativ ta'lim jarayonini qurish, ta'lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish turli uslublar, bilim va ko'nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Kreativlikning mohiyati - intellekt insonning aqliy salohiyati bo'lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo'naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi. Kreativlik atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi. J. Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olish;
- o'ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish (fantaziya).

Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida interfaol o'qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishni keng tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatlari ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish" kabi ustuvor vazifalar belgilanib berilgan. Shunga muvofiq interfaol o'qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining ma'noni tushunib olish talab etiladi.

"Kreativlik" tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

A.X. Maslou kreativlikni 2 turga bo'ladi: iste'dodning kreativligi va shaxsning o'zo'zini aktuallashtirish kreativligi.

Shaxsning o'z-o'zini aktuallashtirish kreativligi shaxs bilan uzviy bog'langanligi sababli biz unga kundalik hayotda va kasbiy faoliyatning ko'p sohalarida duch kelishimiz mumkin. A.X. Maslou kreativlikda o'z-o'zini aktuallashtirishning ikki darajasini keltirib o'tgan: birinchisi – "ixtiyorsiz kreativlik, bunda shaxs birdan aqliga kelish, ruhlanish, qiyin kechinmalarga ega bo'ladi", "ikkinchisi – ixtiyoriy, og'ir mehnat bilan bog'liq, uzluksiz ta'lim, kamolotga intiluvchanlik". A.X. Maslou kreativlikni inson tabiatining fundamental xarakteristikasi sifatida ko'radi, ya'ni barcha insonlardagi tug'ma qobiliyat, lekin hayoti davomida ma'lum ijtimoiy to'siqlar natijasida yo'qolib ketadi, deb hisoblaydi. T.A. Barisheva va Yu.A. Jigalovalar pedagogikada kreativlikni tizimli (ko'p bosqichli, ko'p o'lchamli) psixik (ruhiy) ta'lim sifatida talqin etib unga faqatgina intellektual potensialni emas, balki motivatsiya, emotsiya, estetik rivojlanish darajasi mavjudligi, kommunikativ parametrlari, kompetentligi va hokazolarni ham kiritadi. Shuningdek, kreativlikning mezonlari Dj.P. Gilforda, E.P. Torrans tomonidan belgilangan:

- ravonlik: ma'lum bir vaqt oralig'ida ko'plab fikrlarni ishlab chiqarish qobiliyati;
- o'ziga xosligi: aniq, taniqli, umume'tirof etilgan, oddiy yoki qat'iy belgilanganidan farq qiluvchi g'ayrioddiy, nostandart g'oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati;
- sezuvchanlik: g'ayrioddiy detallarga sezgirlik, qarama-qarshilik va turli xil noaniqliklar, tezda bir fikrdan ikkinchisiga o'tishga tayyorlik;
- mo'tadillik: g'ayritabiiy kontekstda ishlashga tayyor bo'lish, ramziy, birlashtiruvchi fikrlashga moyillik, oddiy va murakkab sharoitda ko'rish qobiliyati;
- rivojlanish: paydo bo'lgan g'oyalarni batafsil ishlab chiqish, ularni sath va quyi tizimlarga aylantirish qobiliyati;
- to'xtashga qarshilik: bir xillikka qarshilik ko'rsatish, ya'ni muammoni yechish jarayonida kelib tushayotgan turli informatsiyalar andozalariga qarshilik ko'rsatish.
- noaniqlik: stimuldan mustaqil mantiqiy reaksiyagacha bo'lgan qobiliyat; "nomlash"ning mavhumligi: shaxsning muammo mohiyatini tushunish qobiliyati, aslida, ahamiyatga ega bo'lgan nomni tushunish va aksini aks ettirish qobiliyati ("nomlash" jarayoni mufassal shaklni, muammoning mohiyatini ko'rish qobiliyatini, og'zaki shaklga aylantirish qobiliyatini aks ettiradi);
- ko'p vazifalilik: bir vaqtning o'zida bir nechta loyihalarda ishlash qobiliyati;
- samaradorligi: ularning foydasi, mahsulotning maqsadli auditoriyasi tomonidan yangi, noyob, original bo'lishi haqidagi idrok;
- mamnuniyat: kreativlikning natijasi.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, shaxsning ijodiy salohiyati muammoga mustaqil qarash, qarama-qarshiliklar, tanqidiy fikrlash; har qanday muammolarni tahlil qilish qobiliyati, analitik fikrlash; ular uchun yechim topish qobiliyati; bilim olish, malaka va ta'lim berish usullarini yangi holatga o'tkazish imkoniyati; ilgari o'rganilgan usullarni yangilarga birlashtira olish kabi ko'nikmalarda namoyon bo'lishi mumkin.


Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida ham kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun dars jarayonlarida;

- 1.Mantiqiy savol javob:
- 2.Noananavi testlar (rasmi testlar) dan ko'proq foydalanish:
- 3.O'quvchilarni mustaqil bilim olishga o'rgatish:
- 4.Avval olgan bilimlarini amalda qo'llay bilish ko'nikmalarini rivojlantirishda iborat.


Masalan quydagi testlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Ko'krak qafasini, to'sh suyagining orqasida ikki o'pkaning o'rtasida joylashgan organ?


A)



B)




C)




D)




Qorin bo'shlig'ining bel qismida ya'ni birinchi va ikkinchi bel umurtqasining ikki yonida joylashgan organni aniqlang?



19. Qoldiq azot qaysi a'zo orqali tashqariga chiqariladi?



20. Qaysi a'zoda har xil ta'sirni sezuvchi retseptorlar joylashgan?



Ta'lim oluvchilardagi kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida interfaol ta'lim jarayoni ahamiyatli sanaladi. Interfaol ta'lim – ta'lim oluvchining bilish faoliyatini faollashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'quv jarayonini o'zaro hamkorlik asosida tashkil etilgan “subyekt-subyekt” munosabatlariga asoslangan o'qitish metodlari tizimidir. Bunda o'zaro harakat ta'lim oluvchilarning faollashuvi, guruh tajribasiga asoslanish, teskari aloqa o'rnatish kabi tamoyillarga tayanadi. Demak, interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari vositasida ta'lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarni rivojlantirishning muhim sharti ta'lim jarayonida erkin-ijodiy muhitning yaratilishi, professor-o'qituvchilar, o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning birgalikdagi munosabatlari va o'zaro hamkorlikdagi harakatiga asoslangan o'qitish jarayonini yo'lga qo'yishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirzayeva, Z. S., & Fayziev, V. B. (2021). O'quvchilarda mustaqil ta'limni tashkil etish yo'llari. Academic research in educational sciences, 2(5), 362-366.
2. Kreativlikning mazmunmohiyati va uni rivojlantirishning pedagogik-psixologik shartsharoitlari ZS Mirzaeva - Academic research in educational sciences, 2023
3. Sodiqova Sh.A. “Maktabgacha pedagogika” “Tafakkur chashmalari” T.2013
4. Kayumova N.M. “Maktabgacha pedagogika TDPU” nashriyat T.2013
5. www. tdpu.uz
6. www. pedapog. Uz
7. www. ziyonet. Uz
8. www. edu.Uz
9. tdpu-intrnet.ped

UDC 372.881.111.1

METHODS OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE

M.J.Mirzaeva, teacher, Tashkent State Agrarian University, Tashkent

Annotatsiya. Maqolada chet tillarini o'qitishning an'anaviy usullari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Babanskiy taqdim etgan o'qitish usullarning tasnifi ham tahlil qilinadi. Maqolada o'quv jarayonida har bir usuldan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan, bu o'qituvchiga chet tilini o'rgatishning turli xil zamonaviy yondashuvlari bo'yicha harakat qilish va talabalarning ehtiyojlarini, tilni tayyorlash darajasi va o'rganishning yakuniy maqsadi ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda eng yaxshi variantni tanlashga imkon beradi.

Kalit so'zlar: an'anaviy o'qitish usullari, chet tilini o'rgatish, zamonaviy yondashuvlar, til o'rgatish, ijodiy vazifalar.